

010578 -sonli shartnoma
Iste'molchilarga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

Yangiyo'l tuman.

«24» yanvar 2022y.

Ushbu shartnoma "Toshkent suv ta'minoti" MCHJ, keyingi o'rnlarda "Ta'minotchi" deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi A.A.Alchurazov shaxsida, bir tomonidan va keyingi o'rnlarda "Iste'molchi" deb yuritiluvchi Yengibor Shu Ali iba Suvo nor. Xamont salomot texnologiya asosida ish olib boruvchi direktor Solikov J. U. (F.I.Sh., lavozimi)

ikkinci tomonidan, quyidagilar haqida tuzildi:

I. Shartnoma predmeti

1.1. 2022yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq budget tashkilotlari va II guruh iste'molchilari uchun suv yetkazish	<u>4650</u>	narx bo'yicha	<u>2869</u>	m ³ ni:
1m ³ suv uchun		so'm (+QQS 15%), +	so'm (maxsus ustama xaq)ni tashkil qilmoqda	
1m ³ oqova suyuqlik uchun		so'm (+QQS 15%) +	so'm (maxsus ustama xaq)	
Shu taripa shartnomaning umumiy qiymati		<u>15194350</u>		so'mni tashkil qildi.
Shu jumladan, budget mablag'laridan		<u>10297350</u>		so'm, budgetdan tashqari mablag'laridan
	<u>11997000</u>	(Gu sun' shartnomasi tuzilgan surʼiy tuzilganda)		so'm budgetdan tashqari mablag'lardan to'lanishi ko'zda tutilgan.

Budget tashkilotlari II guruh iste'molchilari tomonidan to'lov muntaзам (oyma-oy) tarzda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan hisobvara-q fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni O'zDSt 950: 2011 «Ichimlik suvi, gigiyenik tafablar va sifat nazorati» amaldagi standartiga muvofiq ravishda barqaror ta'minlaydi. Ushbu standart nazorat Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tomonidan amalga oshirilib, suv quvurlari tarif qiymatida (QQS ni hisobga olgan holda) xo'jalik-maishiy va ishlab chiqarish-tehnologik ehtiyojlarga yo'naltiradi.

1.3. «Iste'molchi» o'rnatilgan muddatlar ichida "Ta'minotchi"ga ko'rsatilgan suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish bo'yicha shartlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldaggi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari"ga (keyinchalik matnda – Qoidalalar deb yuritiladi), va Toshkent viloyati Hokimining 2019 yil 13 martdagagi № 200-sonli qaroriga, unga muvofiq tarifa, 1 m³ suv uchun va kanalizatsiya xizmatlariga ham 1 m³ 50 so'mdan mahsus ustama haq joriy etilgan hamda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan kommunal suv yetkazib berish va okava suv chiqarish tizimiga ularish uchun ruxsat etuvchi hujjalarga riyoq qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

1.5. «Iste'molchi» ushbu shartnomaga, uning tasarrufidagi barcha ob'ektlarining (filial va sub-iste'molchilarning) dislokatsiyasini, ularning suvda ehtiyoji va suv tizimiga ularishdagi ehtiyojini, yetkazib berishning miqdori va diametrlerini ko'rsatgan holda, kadastr nusxasini taqdim qiladi, "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qiladi.

II. Umumiyoq qoidalar

2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, yo'lakchalariga o'rnatilgan vaqtidan tashqari suv sepish, hamda, ichimlik suvidan avtomashinalarni yuvish uchun foydalanish qat'yan man etiladi.

2.2. Kommunal suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suvi iste'molchi (sub-iste'molchi)larning xo'jalik-iste'mol va communal-maishiy ehtiyojlarini, yong'lnarni o'chirish, shuningdek, ichimlik suvi talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan.

"Ta'minotchi"ning texnik imkoniyatlari mavjud bo'lgan holatlarda, ixtisoslashgan iste'molchilarga ichimlik suvi markaziy communal suv ta'minoti tizimlaridan yetkazib beriladi.

2.3. Asosiy iste'molchining tarmoqlaridan suv olib, oqova suvlarini "Iste'molchining" kanalizatsion tarmoqlariga o'tuvchi sub-iste'molchilar suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish shartnomasini "Iste'molchi" bilan tasdiqlangan "Qoidalarga" muvofiq tuzadilar.

2.4. Suvni hisobga olish asboblari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agetligi tomonidan tekshirilgan va tamg'alangan bo'lishi va suv o'lhash tarmog'i suv-kommunal xo'jaligi tashkiloti tomonidan tamg'alanishi lozim. Shuningdek ichimlik suvini xisobga olish uskunasini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 20 avgustdagagi № -698 sonli qaroriga muvofiq yuritiladi.

2.5. "Iste'molchi"ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lhash qurilmasining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi va "Iste'molchi" bilan kelishiladi. Hisoblash qurilmasi uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdordan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» suv o'lhash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.6. Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligining rekonstruksiysi, hisoblash qurilmalarini ishga tushirish, hisoblash qurilmalarini almashtirish, yangi sub-iste'molchilarining ularishi "Iste'molchi" tomonidan faqat "Ta'minotchi" tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular "Iste'molchining" so'rovnomasini asosida, barcha tasdiqlovchi hujjalarni ilova qilgan holda beriladi. "Ta'minotchi"dan olingan texnik shartlar asosida, "Iste'molchi" buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yor, qoidalari va boshqa me'yoriy hujjalarni asosida loyihalashtirish tashkiloti tomonidan ularish loyihasi ishlab chiqiladi.

2.7. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi "Ta'minotchi" tomonidan, "Iste'molchi" va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.8. Agar suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun narxlarda o'zgarish vujudga kelsa, to'lov yangi tariflar asosida amalga oshiriladi.

2.9. Kommunal suv ta'minoti va suv chiqarish qismalarining texnik holati uchun ekspluatatsion mas'uliyat chegarasi (suv va oqova tizimlari, qurilmalar va ularning moslamalari) suv-kommunal xo'jaliklari va iste'molchilar orasida, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarini orasida quyidagilardan iborat:

a) suv iste'moli uchun uzatish tarmog'ining kiritish qurilmasi bo'lib, u kommunal tarmoqdan o'chiriladi. Suv quvurini, shu jumladan uzatish qurilmasini ishga tushirish iste'molchining ichki suv uzatish tizimining bir qismidir;

b) oqova tizimi uchun magistral oqova tizimiga ularish nuqtasidagi suv chiqarish qudug'i bo'lib, u "Iste'molchi"ning ichki oqova tizimining bir qismidir. Agar chiqarish oqova qudug'i magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ko'rsatilgan quduq suv-kommunal xo'jaligining bir qismi bo'ladi, uzatish tarmog'ining ekspluatatsiyasi esa "Iste'molchi"ning kuchi va mablag'i hisobiga amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatları

3.1. Iste'molchingin huquqlari:

- a) "Ta'minotchi"dan, u bilan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iغا, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;
- b) "Iste'molchi" hisobidan hisoblash qurilmasini o'rnatish.
- v) tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun "Ta'minotchi"dan qonunchalikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;
- g) "Ta'minotchi"ni shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlarma bekor qilish;
- d) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarining yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani (shaxsan yoki o'z vakili orqali) bepul olish;
- ye) "Ta'minotchi"dan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;
- yo) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ta'minotchidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;
- j) Davlat sanitariya epidemiologiya markazi organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mayjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelgingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

3.2. Iste'molchingin majburiyatları:

- a) shartnoma shartlarini bajarish;
- b) o'zining hududida joylashgan va ularga tegishli bo'lgan kommunal suv va oqova tarmoqlari va qurilmalarining muvofiq ravishda qo'riqlanishini, ularga suv toshishi yoki shikastlanishiga, muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik, quduq qopqoqlarini qor va muzdan tozalash. "Ta'minotchi" tomonidan o'rnatilgan tamg'alarining butligini nazorat qilish, quduqlardan yuza oqovasi mavjudligini ta'minlash, yong'inga qarshi gidrantlarga o'tish yo'llarini berkitmaslik, ko'rsatilgan yong'inga qarshi gidrantlarning ko'rsatkichlari yaxshi ishlashini nazorat qilish;
- v) "Iste'molchi" hududida yoki uning tasarrufidagi suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustiga turli buyum va materiallarning yig'ilishiga hamda suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilmasligini, shu jumladan, tashqi (ko'cha va kvartal ichidagi) suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining ustidan inshootlar qurilishiga yo'l qo'ymaslik.
- g) kommunal suv quvuri, oqova tarmoqlari va qurilmalarining tranzit nuqtalarida har qanday shikastlanish, buzilishlar haqida zudlik bilan "Ta'minotchi"ni xabardor qilish;
- d) suvni hisobga olish priborlarida yaqqol ko'rini turgan nosozliklar, shuningdek tamg'anı butligiga shikast yetgan yoki uzib tashlanganligi to'g'risidagi holat aniqlanganda hamda hisobga olimmagan yong'inga qarshi gidrantlar mayjudligi haqida darhol yozma ravishda yoki aloqa tarmoqlari (faks, elektron pochta) orqali "Ta'minotchi"ga xabar berish;
- ye) "Ta'minotchi" bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rivoja qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish va ushbu ko'rsatkichlarni "Ta'minotchiga" joriy oyning oxirgi kunidan kechikmagan holda ma'lumotlarni taqdim qilish va to'lovnii amalga oshirish;
- yo) shartnomada belgilangan miqdordan ortiq hajmda suvning ortiq sarf qilinishiga va oqova suvlarining me'yordan ortiq chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik;
- j) "Ta'minotchi"ni o'z vaqtida suv o'tkazish-oqova xo'jaligidagi, bank ma'lumotlari va yuridik manzilidagi o'zgarishlar haqida xabardor qilish;
- i) "Iste'molchi"ga tegishli bo'lgan yoki uning hududida joylashgan suv va oqova tarmoqlari, qurilma va moslamalarning muvofiq texnik ekspluatatsiyasini ta'minlash;
- y) ishlab chiqarish oqova suvlarining oldindan tozalash ishlarini olib borish va ularning ifloslanish konsentratsiyasini me'yordagi ko'rsatkichlarga o'tib ketmasligini ta'minlash;
- k) oqova tarmog'iga tushiriluvchi suvlarining sifatining monitoringini ta'minlash;
- l) "Iste'molchi" hududida joylashgan suv o'lhash tarmog'i, communal suv o'tkazish va oqova tizimlarida har qanday ishlarning bajarilishiga begona shaxslarni qo'ymaslik;
- m) jamoat suv va kanalizatsiya tizimlarini ob'ektlariga shikast zarar yetkazgan "Iste'molchi" darhol "Ta'minotchi"ga xabar berishi va yetkazilgan zararni qoplash uchun "Ta'minotchi" texnik nazorati ostida o'zi yetkazilgan shikastlanishni bartaraf etish va behuda sarf qilingan suv narxini to'lashi shart.

3.3. Ta'minotchingin huquqlari:

- a) "Ta'minotchi" quyidagi hollarda, iste'molchini 7 kun avval xabardor qilgan holda, suv uzatishni va suv chiqarishni to'liq yoki qisman to'xtatish huquqiga ega:
- b) "Iste'molchi" hududida joylashgan va uning tasarrufidagi suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarining texnik holati qoniqsiz holatda bo'lsa va "Iste'molchi" texnik foydalanish qoidalarini buzish natijalarini "Ta'minotchi" vakillari talabiga ko'ra bartaraf etmas;
- v) "Ta'minotchi"ning vakili iste'molchi hududida joylashgan va uning tasarrufidagi bo'lgan suv uzatish va oqova tarmoqlari, moslama va qurilmalarida ishlar olib borish, tamg'a o'rnatishga va boshqa ishlarda "Iste'molchi" tomonidan asossiz xalaqt berilgan taqdirda;
- g) "Ta'minotchi" tomonidan rejali oldini olish ta'mirlash ishlarini, suv o'tkazish va oqova tarmoqlarida ishlar bajarilishida, "Iste'molchi" ularga ulangan bo'lsa, va yangi "Iste'molchi"larni ularash uchun ishlarini o'tkazishda;
- d) "Iste'molchi"ning xizmat ko'rsatilishiha va uning tasarrufidagi communal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlariga o'zboshimcha sub-iste'molchilarning ulanligi aniqlanganda;
- ye) "Iste'molchi" o'rnatilgan muddatlarda to'lov hujjalari muvofiq to'lovnii amalga oshirmaganda;
- yo) "Ta'minotchi"ning roziligini organ sub-ta'minotchilarning "Iste'molchi" tasarrufida bo'lgan communal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlariga ularanishiga rad javobini berganda;
- j) "Iste'molchi"lar tomonidan communal suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlarini ko'rsatish shartlariga rivoja qilinmaganda;
- z) energiya ta'minoti to'xtatilganda;
- i) tabiiy ofatlarda;
- y) avariyalarda;
- k) yong'in chiqqan yerlarga suv yetkazish hajmini oshirish zaruriyati tug'ilganda.

3.4. "Ta'minotchi"ning majburiyatları:

- a) suv ta'minoti va suv chiqarish bo'yicha shartnoma shartlarini bajarish;
- b) suv yetkazilishini uzluksiz yoki tasdiqlangan suv berish jadvali asosida ta'minlash;
- v) tizimli ravishda davlat suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlari, iste'mol ob'ektlari va qurilmalariga ulangan suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarining holatini va ishini tizimli nazorat qilishni amalga oshirish va ularni to'g'ri ishlashni tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish; budget bilan birgalikda "Iste'molchi"lar suvidan oqilonla foydalanish va svudan oqilonla foydalanishni aniqlash, suvni yetkazib berish va iste'mol qilishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish, sanoatga muvofiqligini muntazam ravishda nazorat qilish va ularga tenglashtirilgan suv iste'mol qilish cheklovlariga rivoja qilishni nazorat qilish;
- g) "Iste'molchi"larga individual hisoblash qurilmalarini o'z xisobidan o'rnatilganidan so'ng, o'rnatilgan tartib va muddatlarda ularning ishini tekshirish;
- d) "Iste'molchi"lar suv quvur xo'jaligining tekshirishni (individual hisoblash qurilmasning yaxshi ishlayotganligini tekshirgan, ulardag'i nazorat ko'rsatkichlarini oorgan va tamg'alarining mayjudligi va butligini aniqlagan holda) bir oyda ko'pi bilan bir marta o'tkazish va muvofiq dalolatnomalarni tuzish;
- ye) "Iste'molchi"ga, ushbu shartnomaning shartlarini bajarmagan hollarida, jarima ya'ni penya to'lovlarni amalga oshirish;

yo) suv ta'minoti va iste'moliga oid me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlarning qabul qilinganligi haqida "Iste'molchi"larni xabardor qilish;
j) suv yetkazish va suv chiqarish uchun xizmat haqi to'lovlarning tariflari oshganda, ular kuchga kirgan kundan 15 kun avval ommaviy axborot vositalar orqali ma'lumot berish;

z) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani "Iste'molchi"ga bepul berish;

VI. Taraflarning javobgarligi

4.1. "Ta'minotchi" ushbu shartnomaga muvofiq majburiyatlarini bajarmaslikda yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda kelib chiqqan zararni, "Iste'molchi" esa yetkazilgan haqiqiy zararning o'mini qoplashi shart.

4.2. Iste'molchi quyidagilar uchun javobgardir:

a) suv hisoblash qurilmasidagi tamg'alar, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrantlar va boshqa suv uzitish moslamalaridagi qismlarning uning hududida va tasarrufida bo'lgan tamg'alangan hisoblash qurilmalarining butunligi va saqlanishi uchun;

b) suv tarmoqlariga o'z boshimcha ularib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash qurilmalaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holda o'zgartirish holatlari uchun;

v) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

g) o'zboshimchalik bilan qurilgan inschoatlar sababidan, tarmoqlardagi avariylar bo'lgan xolatlarda;

d) kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lsa "Iste'molchi" hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda "Ta'minotchi" xodimi o'rnatilgan tartibda dalolatnomasi tuzadi va ushbu dalolatnomasi "Iste'molchi"ning mas'uliyat va javobgarlik chorasi boshqalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

4.3 "Ta'minotchi" quyidagi hollarda javobgardir:

a) amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq, uzatilayotgan suvning sifati va qonunchilikda va shartnomasi shartlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) "Iste'molchi" larga suv ta'minotiga ularish va suv chiqarish xizmatlari foydalananish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarning o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) "Iste'molchi"ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda, qoplash;

g) shartnomasi shartlari va yuklatilgan majburiyatlarini bajarmaslik;

d) qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi

5.1. Kommunal suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash qurilmasi mavjud bo'lganda, hisoblash qurilmasining ko'rsatkichlariga muvofiq, amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, suv tarmog'idan yetkazib beriladigan suv miqdoriga teng. Markazlashgan holda issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi sovuq suv miqdoriga 2.0 koefitsiyenti qo'llaniladi. "Iste'molchi"ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldarligiga (yoki o'rnatilgan va ro'yxatga olingan hisoblash qurilmalarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi "Iste'molchi"ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'imasligi lozim. Ushbu xolat aniqlangan taqdirda, xisob-kitob shartnomaning 6.3 bandiga asosan amalga oshiriladi.

VI. Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda, "Iste'molchi" butun debitorlik qarzdorligini so'ngdirishi va "Ta'minotchi" bilan chiqib ketishdan kamida 7 kun oldin dalolatnomani tuzish va imzolashi zarur, "Iste'molchi" chiqib ketganidan so'ng, tamg'alar va hisoblash qurilmalarining butigli va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklatiladi.

6.2. "Iste'molchi"ning suv uzatish-oqova xo'jaligidagi barcha o'zgarishlar ta'minotchi tomonidan "Iste'molchi"ning xati kelib tushgan kundan boshlab hisobga olinadi.

6.3. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quyadagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q = M \times F \times \sqrt{2g \times H} \times t$$

bunda: M – 0.60ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koefitsiyenti;

F – suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha) m^2 ;

g – 9,81 m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;

N – suvning metrlardagi bosimi;

t – vaqt- 24 saat, sekundlarda;

Quyidagi holatlarda:

6.3.1. "Iste'molchi"da suv o'lhash asbob va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.3.2. Suv o'lhash asbobi yoki moslamasi "Ta'minotchi"da ro'yhatdan o'tmagan taqdirda;

6.3.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalab, suv sepilganda, avtomashinalar yuvilganda;

6.3.4 Suv o'lhash asbobi, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda, plombalari uzilgan bo'lsa sarflangan suv hajmi ushbu shartnomasi 6 qismining 6.3 bandida ko'rsatilganiga muvofiq, eng so'nggi tuzilgan dalolatnomasi muddatidan yangi suv o'lhash asbobi o'rnatilib, (ro'yhatdan o'tkazilgan)kungacha hisoblanadi;

Suvni hisobga olish asbobi iste'molchining aybisiz nosoz bo'lgan taqdirda sarflangan suv miqdori oldingi uch hisob-kitob oyidagi o'rtaча sarf bo'yicha aniqlanadi. Hisob-kitobning bunday tartibi bir oydan ko'p qo'llanilishi mumkin emas. Agar suvni hisobga olish asbobi ko'rsatilgan muddat mobaynida o'rnatilmasa, sarflangan suv miqdori I guruh iste'molchilar uchun — ushbu Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandi bo'yicha, II va III guruh iste'molchilar uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «b» kichik bandi bo'yicha hisob-kitob qilinishi;

6.3.5. "Iste'molchi"ning ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimi kommunikatsiyalaridan suv isrof bo'lishi holatlari aniqlangan holatlarda;

6.3.6. "Ta'minotchi"ning suv o'lhash bo'g'ini diametri kichikroq bo'lgan moslamaga alishtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan, bajarilmagan holatlarda;

6.3.7 Suv o'lhash asbobining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sofabini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.4. Ichimlik suvi va oqova suv communal tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrantlari va xonodon quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ularib olingen va foydalilanigan holatlari aniqlanganda, "Ta'minotchi" tomonidan dalolatnomasi tuziladi va shu tuzilgan dalolatnomasi o'zboshimchalik bilan ularib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va "Ta'minotchi"ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda:

-to'lov muddatiga eng so'nggi tuzilgan dalolatnomasi sanasidan o'zboshimchalik bilan ularib olingen kun sanasigacha yoki yangisuv o'lhash asbobi o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha, yoki o'zboshimchalik bilan ularish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

-o'zboshimchalik bilan ularib olingen sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar "Ta'minotchi" balansdagi tarmoqlarga ularish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarar. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi;

6.5 Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyxalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi zarar.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddatni o'tgan holda, "Ta'minotchi" tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.6. "Istc'molchi" kommunal suv ta'minoti va oqova svuni chiqarib yuborish tarmoqlariga ularish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda "Ta'minotchi" tomonidan, xokim qarori va kadastr hujjatlari va shu kabilar asosida, hujjat bilan tasdiqlangan ularish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.7. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar, "Ta'minotchi" tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar "Iste'molchi" tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, "Ta'minotchi" kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun 0.4 % penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'loving 50%dan oshmasligi lozim.

6.8. "Iste'molchi" hisob raqami bo'yagan taqdirda, to'lovlar bank bo'limlarining kirim cassasi orqali, hisobot davridan keyingi 10 kun muddat ichida to'lanadi.

6.9. «Ta'minotchi» to'loving har bir davri uchun, avvalgi oy to'loving 100 % miqdorida oldindan to'lovlar (predoplata)ni belgilaydi va bu to'lov keyingi oy hisobiga qo'shiladi. Agar "Iste'molchi" ikki hafta muddat ichida to'lovnini amalga oshirmsa, "Ta'minotchi" hech qanday ogohlantirishlarsiz ichimlik svini yetkazib berishni yoki oqova suvlarni chiqarib yuborishni undirmagunga qadar to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq "Iste'molchi" zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ularshda II guruh iste'molchilaridan eng kam oylik ish haqining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ularshni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

Kanalizatsiya tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan ishlab chiqarish oqova suvlarni "Iste'molchi" lar tomonidan tashlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kunida qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarni qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining communal kanalizatsiya tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun "Iste'molchi"larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koefitsient miqdor tartibida hisoblanadi.

6.10. Xisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida "Iste'molchi" ga yoziladigan e'tiroznomma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda "Ta'minotchi"ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznomma "Iste'molchi"ni to'lov xujatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlarga kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchilikiga muvofiq sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaligini tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiyi ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzyatiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xo'lati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holating shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 yilning 31 dekabrigacha amal qiladi.

«TA'MINOTCHI»

«Toshkent suv ta'minoti» MCHJ

Yangiyo'l tuman bo'limi

Manzil: Navbaxor MFY, Amur Temur trakti ko'chasi


Tel: (70) 601-10-04

h-r: 2263 8000 9001 0149 8446

Bank: ATIB "Ipoteqa bank" Chirchiq filiali

Bank kodи: 00078 STIR: 201577953

XHTUT: 90213



«ISTE'MOLCHI»

Yangiyo'l Abu Ali ibn Sino nom. J. 5.7
Manzil: Tosh. 6, Yangiyo'l t. M-34 özbekiston MFY
Tel: (71) 202 - 010 87 (71) 202 - 01 - 58
g'az/h-r: 13401000300100001010
Bank: Toshkent sh. Matkaxiy bank Tosh. u. KRN
Bank kodи: MFO: 00014 STIR: 209122919
XHTUT:
Shaxsiy raqam:
Shaxsiy h-r: 4009108602725974092902054001
Bank:
Bank kodи: OKONK 92420 STIR: 200430104
Moliyo - sozlikli parvosalular
(g'aznachilik bo'limi)
Rahbar: Y. U. Alchurazov
M.O.:
«_____» 2022 y.

Rahbar: Y. U. Alchurazov
M.O.:
«_____» 2022 y.
Publik sh. nomidagi Janobiya
Qurashchi bo'limi
VIZIRLIGI * O'ZBEKISTON
YANGLIKUM * VANGUZI
PAQASHMA
PAQOMATLIGI

Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarorlik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy asosi to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq tuzilgan

Huquqshunos

«24»-yanvar 2022y.

«24» 01 2022 й 010578 сонли шартномага илова

Тошкент вилояти Янгийул туман Абу Али ибн Сино номилаги Жамоат саломатлиги техникуми билан «Тошкент сув таъминоти» МЖЧ корхонаси уртасидаги Ичимлик суви етказиб бериш учун тузилган «24» 01 2022 й. № 010578 сонли шартномага

СПЕЦИФИКАЦИЯ

(2022 йил « » ойи учун)

№	Махсулот ва хизмат (ишлар) номи	Улчов бирлиги	Нархи (Сум,т)	Эҳтиёж учун зарур микдор (хажм)	Сумма
1	Январ	м ³ сув	4650	107	497550
		окова			
2	Февраль	м ³ сув	4650	86	399900
		окова			
3	Март	м ³ сув	4650	86	399900
		окова			
4	Апрель	м ³ сув			
		окова			
5	Май	м ³ сув			
		окова			
6	Июнь	м ³ сув			
		окова			
7	Июль	м ³ сув			
		окова			
8	Август	м ³ сув			
		окова			
9	Сентябрь	м ³ сув			
		окова			
10	Октябрь	м ³ сув			
		окова			
11	Ноябрь	м ³ сув			
		окова			
12	Декабрь	м ³ сув			
		окова			
	Жами			279	1297350

Сотувчи (етказиб берувчи)



(фамилия, имзо, мурр)

Харидор (ташикилом)



(фамилия, имзо, мурр)

Абилов Ж.У.